


## VIII. XIZMATLAR

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish (2022- yilning yanvar-mart holatiga)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foiz hisobida</i>	<i>umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida</i>
<b>Jami – xizmatlar</b>	<b>4 839,8</b>	<b>120,1</b>	<b>100,0</b>
<i>jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	250,8	119,9	5,2
moliyaviy xizmatlar	1 228,2	183,0	25,4
transport xizmatlari	822,3	109,7	17,0
<i>shu jumladan:</i>			
avtotransport xizmati	763,6	106,4	15,8
yashash va ovqatlanish xizmatlari	113,5	103,2	2,3
savdo xizmatlari	1 410,8	107,2	29,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	115,0	108,6	2,4
ta'lim sohasidagi xizmatlar	167,8	107,5	3,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	97,8	101,9	2,0
ijara xizmatlari	96,1	93,5	2,0
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	124,9	106,4	2,6
shaxsiy xizmatlar	263,7	102,2	5,4
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	39,0	116,9	0,8
boshqa xizmatlar	110,0	105,6	2,3

“2016-2020 yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturi”ni amalga oshirish natijasida moliyaviy xizmatlar – 183,0 foizga, aloqa va axborotlashtirish sohasidagi xizmatlar-119,9foizga, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 101,9 foizga, me'morchilik, kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 116,9 foizga, va ta'lim sohasidagi xizmatlar – 107,5 foiz yuqori o'sish sur'atlariga erishildi.


**2022- yilning yanvar-mart holatiga xizmatlar tarkibi**  
(jamiga nisbatan foizda, katta ulushga ega bo'lganlar)



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (jami xizmatlarning 29,2 foizi), moliyaviy xizmatlar (25,4foizi), transport xizmatlari (17,0 foizi), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,2 foizi) hissasiga to'g'ri keldi.


Joriy yilning yanvar-mart oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlari 1 410,8 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar 1228,2 mlrd. so'm, transport xizmatlari 822,3 mlrd.so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 250,8 mlrd. so'mni tashkil etganini ko'rish mumkin.

**2022- yil yanvar-mart oylarida**  
**yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %**



2022- yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Farg'ona viloyatida 113,5 mlrd.so'mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo'yicha xizmatlar 10,2 mlrd.so'm, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 103,3 mlrd.so'mni tashkil etgan.

## 2022- yil yanvar-mart oylarida transport bo'yicha xizmatlar tarkibi, %da



2022- yil yanvar-mart oylarida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 822,3 mlrd.so'mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 763,6 mlrd.so'mni, jami transport xizmatlarining 92,9 foizini tashkil etadi.

### Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish

(2022- yilning yanvar-mart oylarida)


	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd.so'm	2021- yil yanvar-mart holatiga nisbatan foizda	jami xizmatlar hajmiga nisbatan foizda	ming so'm	2021- yil yanvar-mart holatiga nisbatan foizda
Farg'ona viloyati	4 839,8	120,1	100,0	1 239,4	117,7
<i>shaharlar:</i>					
Farg'ona	983,2	120,2	20,3	3 278,6	117,8
Qo'qon	494,2	120,1	10,2	1 898,6	118,4
Quvasoy	202,4	119,9	4,2	2 084,4	117,5
Marg'ilon	307,8	121,0	6,4	1 266,6	119,1
<i>tumanlar:</i>					
Oltiariq	176,3	120,8	3,6	803,0	118,1
Qo'shtepa	268,2	120,2	5,5	1 348,4	117,1
Bog'dod	134,4	117,1	2,8	600,5	114,7
Buvayda	239,3	122,6	4,9	1 011,1	119,9
Beshariq	126,4	121,7	2,6	538,0	119,7
Quva	133,9	121,1	2,8	502,3	118,9
Uchko'prik	193,5	118,9	4,0	813,3	116,0
Rishton	222,1	122,6	4,6	1 063,8	120,2
So'x	100,6	118,1	2,1	1 246,2	116,0
Toshloq	184,9	119,4	3,8	879,2	116,7
O'zbekiston	167,4	120,8	3,5	678,4	118,5
Farg'ona	264,6	120,3	5,5	1 194,9	117,7
Dang'ara	148,6	120,9	3,1	820,3	117,9
Furqat	280,6	117,6	5,8	2 298,4	115,0
Yozyovon	211,3	117,5	4,4	1 837,5	114,8

Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Rishton tumaniga (120,2 foiz) to'g'ri keldi.

Viloyat bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning yuqori ulushilari Farg'ona shahri (20,3 foiz), Qo'qon shahri (10,2 foiz), Marg'ilon shahri (6,4 foiz), Furqat (5,8 foiz) va Buvayda (4,9 foiz) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ulushlari So'x (2,1 foiz), Beshariq (2,6 foiz) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2022- yilning yanvar-mart holatiga xizmatlar sohasida ulushi katta bo'lgan hududlar**  
(jamiga nisbatan foizda)



2022- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1 239,4 ming so'mga teng bo'ldi. Uning o'sish sur'ati esa o'tgan yilga nisbatan 117,7 % ni tashkil etdi.

**2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar**



Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Farg'ona (3 278,6 ming so'm), Quvasoy (2 084,4 ming so'm), Qo'qon (1 898,6 ming so'm) va Marg'ilon (1 266,6 ming so'm) shaharlarida qayd etildi. Shuningdek, Furqat tumani (2298,4 ming so'm), Qo'shtepa tumani (1384,4 ming so'm) va So'x (1 246,2 ming so'm) tumanlarida ham aholi jon boshiga xizmatlar hajmi salmoqli bo'ldi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Quva tumanida (502,3 ming so'm) kuzatildi, o'sish sur'ati 118,9 % ni tashkil etdi.